



SHIFOKOR SO`ZI

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



Joriy yil 19 mart kuni Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy madaniyat va istirohat bog'ida Navro'z bayrami sharafiga tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi.

Navro'z - bu Bahor bayrami, yangilanish va hayot, go'zallik va mehr-oqibat bayrami. Darhaqiqat, bizning ko'p millatli xalqimiz uchun eng sevimli bayram sifatida Navro'z odamlarni birlashtiradi, ularni yanada mehrliroq, bag'rikengroq va bir-biriga diqqatli qiladi.

Samarqand davlat tibbiyot institutida Navro'z bayrami keng nishonlandi. Tadbirlarda institut ma'muriyati, 70dan ortiq kafedralar professor-o'qituvchilari, institut xodimlari va talabalari ishtirok etishdi, ular uyg'onish va bunyodkorlik, oliyanoblik va mehr-oqibat bayramiga o'zgacha hissiyot bilan tayyorgarlik ko'rishdi. Bayramning barcha ishtirokchilarini institut rektori Jasur Alimjanovich Rizaev, prorektorlar va fakultet dekanlari samimiy tabrikladilar. Institutning ijodkor talabalari, bayram mehmonlari - Oqdaryo tumani madaniyat bo'limi xodimlari va boshqa ijodiy guruhlar, shuningdek SamDTI Xalqaro ta'lim fakulteti talabalarining chiqishlari ishtirokchilarga o'zgacha bayramona kayfiyat bag'ishladi. Yaxshi an'ana bo'yicha bayramning barcha ishtirokchilari bayramona palov bilan siylandi.

Bayram tadbirlarida viloyat va shahar rahbarlari, mehnat faxriylari va Samarqand shahri mehmonlari ishtirok etishdi.

bilasizmi...

Navro'z - yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq yangi kunning boshlanishidir. 21-mart kecha va kunduz tenglashgan kun - Yangi yil, yani Navro'z bayrami sifatida Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. U dehqon uchun ekin-tikin ishlarining boshlanish pallasi hisoblanadi.

Navro'zda turli-tuman xalq o'yinlari, bahor qo'shiqlari ijro etilgan. Kitobxonliklar, turli jismoniy tarbiyaga oid sovrinli o'yinlar, musobaqalar tashkil etilgan. Ko'pkari-uloq, kurash o'yinlari, hayvon va parrandalar (xo'roz, it, qo'chqor)ni urishtirish, masxarabozlik, askiyabozlik, dor o'yinlari, turli xil xalq tomoshalari o'tkazilgan. Navro'z - mehnat, mehr-oqibat, insonparvarlik bayramidir. Bu kun marhumlarning qabrlari ziyorat qilinadi. Keksa, nogiron, yolg'iz qariyalar, ota-onalar yo'qlanadi. Kishilar bir-birlariga sovg'a-salomlar ulashib, shirinliklar hadya etishadi. Navro'z - muhabbat, sevgi, sadoqat bayrami. Navro'z munosabati bilan nikoh to'ylari o'tkazilgan. Yigit-qizlar bir-birlari bilan ahdu paymon qilishgan. Yangi tushgan kelin qo'lidan choy ichish maqsadida "kelin ko'rdi"ga borilgan. Navro'z - do'stlik, birodarlik bayramidir. Ushbu kunni nafaqat Sharq xalqlari, balki millati, dini, e'tiqodidan qati nazar, barcha bayram qiladi.





INSTITUTDA "BALLI QIZLAR" KO'RIK-TANLOVI

1 mart - bahor faslini birinchi kuni Samarqand davlat tibbiyot institutida "Balli qizlar" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Mazkur tadbirida institut talabalari va akademik litsey o'quvchilari ishtirok etdilar. Ko'rik-tanlov mashhur o'zbek shoirasi va jamoat arbobi Zulfiyaxonimni 106 yilligiga (1905-1996) bag'ishlandi.

Qutlov so'zlari bilan ko'rik-tanlovni institut rektori professor J.Rizaev ochib berib mamlakatimizda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikni e'tirof etib, institut talaba-qizlari barchaga o'zining xulq-atvori va jamiyat ishlariga befarq bo'lmasligi bilan namuna bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Ko'rik tanlovni asosiy qismi to'rtta ijodiy shartlarda bo'lib o'tdi va ularni bajarilishida talaba-qizlar o'zlarini jamoalarini tanishtirish, fakultetlarini tarixi va hozirgi hayoti, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish, kitobxonlik madaniyati, qo'shiq va raqs ijrosida mahoratlarini ko'rsatdilar. Talabalarni chiqishi, shu jumladan xalqaro tibbiy ta'lim fakulteti talaba-qizlarni qo'shiq va raqslari, barcha ishtirokchilarga bayramona kayfiyatni ulashdi.

Tanlov shartlarini bajarilishi yakunida hakamlar bir ovozdan 1-o'ringa tibbiy pedagogika fakulteti, 2-o'ringa stomatologiya fakulteti, 3-o'ringa pediatriya fakulteti jamoalarini loyiq deb topdilar.

Barcha ishtirok etgan jamoalar faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.



INSTITUTDA "8 MART - XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI" BAYRAMI KENG NISHONLANDI

2021 yil 5-mart kuni Samarqand davlat tibbiyot institutida "8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni" bayrami munosabati bilan 1-son klinikani katta majlislar zalida "Sen aziz va muqaddassan ayol!" bayram dasturi bo'lib o'tdi. Bayram tadbirida institut xodimlari va professor-o'qituvchilari, talaba-qizlar vakillari hamda faoliyat ko'rsatib nafaqaga chiqqan faxriy ayol-ustozlar mehmon sifatida taklif etildi.

Tadbirni institut rektori professor J.Rizaev institut xotin-qizlariga

bag'ishlangan bayram tabrigi bilan ochib berdi. So'ngra ayollar bayrami munosabati bilan taqdirlash marosimiga navbat berildi. Unda institut yoshlar bilan ishlash prorektori E.Tangirov va kasaba uyushmasi raisi Ya.Allayorov tomonidan ko'p yillik samarali faoliyat ko'rsatib institut ravnaqiga hissa qo'shib kelayotgan bir guruh xotin-qizlarga faxriy



yorliqlar va esdalik sovg'alari topshirildi. Shundan so'ng sahnalashtirilgan ajoyib ijodiy chiqishlarga navbat berildi.

Bayramda institutning yosh ijodkor talabalari, viloyat musiqali drama teatrining balet artistlari hamda bir qator qo'shiqchilar barchaning ko'nglidan joy olgan kuy va raqslarni ijro etdilar. Institut ma'muriyati tomonidan mahorat bilan ijro etilgan tabrik qo'shig'i esa barcha tadbir ishtirokchilariga haqiqiy bayram tuxfasi bo'ldi.

Bayram muborak bo'lsin aziz va mo'tabar ayollar!

SamDTI matbuot xizmati

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA UCHRASHUV O'TKAZILDI

2 mart kuni Samarqand davlat tibbiyot institutini katta majlislar zalida "Biz korrupsiyaga qarshimiz!" shiori ostida talabalar bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda institut fakultetlari talabalari, professor-o'qituvchilar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, ichki ishlar boshqarmasi vakillari ishtirok etdilar.

Uchrashuvni SamDTI yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori Eldor Tangirov ochib berdi va o'z nutqida joriy yil mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini

mustahkamlash yili" deb e'lon qilingani yoshlarga bo'lgan e'tiboming ifodasi bo'lganligini ta'kidladi. Uchrashuvda chiqish qilgan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimi Sardor Mamanov, Samarqand shahar IIB boshlig'i o'rinbosari Vohid Axmedovlar so'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga to'xtalib o'tdilar. Xususan, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan Korrupsiya qarshi

kurashish agentligi va uning vazifalari haqida talabalarga batafsil ma'lumotlar berildi. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida jamoatchilik nazoratining o'rnini muhimligi, institut talabalari ham bo'lg'usi ziyolilar sifatida bu jarayonlarda faol ishtirok etishlari lozimligiga alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, uchrashuvda talaba-yoshlarni korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi fikrlarini bilish maqsadida so'rovnomalar olindi. Uchrashuv jonli va samimiy muloqot sifatida o'tkazildi.



SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HAMDA SARATOV DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI HAMKORLIGIDA YANGI FAKULTET OCHILADI

Samarqand davlat tibbiyot institutiga Saratov davlat tibbiyot universitetidan delegatsiya tashrif buyurdi. Uchrashuv davomida ikki tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'rtasida memorandum imzolandi.


Bugungi kunda tibbiyot sohasining yetuk va malakali vakillariga ehtiyoj kattaligi sir emas. Shu maqsadda, Samarqand davlat tibbiyot instituti Saratov davlat tibbiyot universiteti bilan anchadan buyon hamkorlikda 100 dan ortiq webinarlar, konferensiyalar hamda ko'plab mahorat darslari tashkil qilib kelayotgan edi.

Ushbu hamkorlik natijasi o'laroq 2 mart

kuni SamDTI rektori Jasur Rizaev hamda Saratov davlat tibbiyot universiteti rektori Andrey Yeremin o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida memorandum imzolashdi.

Memorandumda doirasida SamDTI o'quv jarayonlariga Saratov davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilarini jalb etishga kelishib olindi. Hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash borasida bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

Xususan, talabalar, magistr hamda klinik



ordinatorlar uchun o'zaro integral darslar, ma'ruza va mahorat darslari tashkil qilinadi. Bemorlar telemeditsina doirasida masofaviy ko'rikdan o'tkaziladi va konsiliumlar tashkil etiladi.

Mazkur nufuzli universitet bilan hamkorlikda farmatsiya yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturi (3+2) tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Memorandumdan so'ng mehmonlar SamDTI 2-klinikasida bo'ldilar. 2-klinika bosh shifokori J.Shamsiev hamrohligida klinik bo'limlar, operatsiya bo'linmalari, klinik laboratoriya va maslahat bloki ko'zdan kechirildi. Shuningdek, professor-o'qituvchilar va klinika xodimlari muloqotga kirishdi.

Saratov davlat tibbiyot universiteti rektori Andrey Yeremin sohani rivojlantirish maqsadida davlatimizda olib borilayotgan ishlarni yuqori baholadi.

Ushbu kelishuvlar, ilmiy-amaliy hamkorlik ikki tomonlama ham manfaatli bo'lishi, soha rivojiga sezilarli hissa qo'shishi e'tirof etildi.

SamDTI matbuot xizmati



INSTITUTDA NAVBATDAGI ILMYI-AMALIY SEMINAR O'TKAZILDI

2021 yil 6 mart kuni Samarqand davlat tibbiyot instituti 1-son klinikasida navbatdagi ilmiy-amaliy seminar bo'lib o'tdi. Mazkur seminar 1-son ichki kasalliklar kafedrasini bevosita tashabbusi bilan tashkil etildi. Seminarida SamDTI ilmiy ishlar va innovatsiyalar

prorektori, 1-son ichki kasalliklar kafedrasini mudiri Sh.X. Ziyadullaev, 1-son ichki kasalliklar kafedrasini, klinikani terapevtik bloki amaliy shifokorlari, klinik ordinator va magistrlar, bakalavriatni yuqori kurs talabalari, jami 150 nafardan ortiq ishtiroqchi qatnashdilar.

Ilmiy-amaliy seminarida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bosh dietologi, Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son ichki kasalliklar kafedrasini professori, t.f.d. Mamlakat Tulabaevna Rustamova taklif qilinib "Oshqozon-ichak yo'llari kasalliklarida hazm qilishdagi buzilishlar: korreksiya va profilaktikaga zamonaviy nazar" mavzusida ma'ruza qildi. Amaliy ma'ruzada ovqatlanishning buzilishiga olib keladigan holatlar va kasalliklarning klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari haqida amaliyotdan ko'plab misollar orqali keng tushuntirildi, eng zamonaviy ma'lumotlar keltirildi. Seminar ishtirokchilarning savol-javoblari va muhokamalari bilan qiziqarli tarzda o'tdi.

SamDTI matbuot xizmati



INSTITUT REKTORINING TURKIYA "SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI" GA XIZMAT SAFARI NATIJALARI

Samarqand davlat tibbiyot instituti va Turkiya Respublikasining "Sog'liq bilimlari universiteti" o'rtasida bir necha yildan buyon yaqin do'stona hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, ushbu davr mobaynida turli sohalarida hamkorlikda qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida "Sog'liq bilimlari universiteti" rektori professor Cevdet Erdol ning taklifiga binoan Samarqand davlat tibbiyot instituti rektori professor J.A. Rizayev Istanbul shahrida xizmat safarida bo'ldi (<https://www.trthaber.com/haber/guncel/semerkand-devlet-tip-enstitusu-rektoru-rizaevden-cevdet-erdole-ziyaret-563243.html>).


Universitet rektori, dekanlari va boshqa ma'muriyat xodimlari rektorimiz Jasur Alimdjano'vichni juda samimiy kutib olishdi. Tashrif davomida Jasur Alimdjano'vich Universitet faoliyati bilan yaqindan tanishdi,

Universitet rektori professor Cevdet Erdol va dekanlar bilan o'quv, ilmiy hamda professor-o'qituvchilar va talabalar akademik almashinuv loyihalarini rivojlantirish masalalari muhokama etildi.

Olib borilgan akademik mobillik, ilmiy yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashinish bo'yicha muzokaralar natijasida pandemiya tugashi bilan "Sog'liq bilimlari universiteti" institutning qator mutaxassisliklar bo'yicha magistratura rezidentlari va klinik ordinatorlarini qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish dasturlariga qabul qilishi kelishib olindi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti ma'muriyati va rektor professor J.A.Rizayev

ko'rsatilgan samimiyat va mehmondo'stlik uchun "Sog'liq bilimlari universiteti" ma'muriyati, xususan rektori professor Cevdet Erdol ga minnatdorchilik bildiradi.



AKADEMIK LITSEYDA OTA-ONALAR BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

Samarqand davlat tibbiyot instituti qoshidagi akademik litseyda 2021-yil 3-4-mart kunlari ota-onalar uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda institut o'quv ishlar prorektori N.A. Yarmuxamedova, litsey ma'muriyati, o'qituvchi va murabbiylar hamda ota-onalar ishtirok etdilar.

Uchrashuvda joriy o'quv yilining 1-

semestr yakunlari, o'tkazilib kelinayotgan test natijalari, o'quvchilarning davomati va tartib-intizomi masalalariga to'xtalib o'tildi. Ota-onalar ham o'quv jarayonni yanada yaxshilash bo'yicha o'zlarini takliflarini bildirdilar.

Semestr davomida a'lo baholarga o'qigan, jamoat ishlarida faol

qatnashgan, o'zining na'munali xulqi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'lgan o'quvchilarning ota-onalariga litsey ma'muriyati tomonidan tashakkurnomalar topshirildi. Tadbir ishtirokchilari bilan shunaqa uchrashuvlarni muntazam ravishda o'tkazish haqida kelishib olindi.



BITIRUVCHILAR BILAN SIRDARYO VILOYATINI SSB VAKILLARI UCHRASHDI

Joriy yil 10 mart kuni institut katta majlislar zalida davolash, pediatriya va tibbiy pedagogika fakultetlari bitiruvchi kurs talabarlari hamda klinik ordinator va magistrlar bilan Sirdaryo viloyatini Boyovut va Xavos tumanlari SSB vakillari bilan uchrashuvi o'tkazildi.

Bitiruvchilar bilan uchrashuvni institut marketing bo'limi boshlig'i B.A. Yuldashev kirish so'zi bilan ochib berdi. Sirdaryo viloyati Boyovut tumani tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i O. Bekmurodov, Xavos tumani tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i M. Narzullaevlar institut bitiruvchilariga o'zlarini tibbiyot muassasalaridagi vakant o'rinlar, yosh kadrlar uchun yaratiladigan shart-sharoit va imtiyozlar haqida batafsil gapirib berdilar.

Uchrashuv davomida mehmonlar bitiruvchilardan berilgan savollarga bilan javob berib ularni joylarda mavjud bo'sh ish o'rinlariga ishga taklif qildilar.

IQTIDORLI TALABALARI BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

11 mart kuni institut davolash, pediatriya va stomatologiya fakultetlarining iqtidorli talabarlari bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda fakultetlar talabalar ilmiy jamiyatlari Kengashlari a'zolari, olimpiada va nomdor stipendiyalar sohiblari ishtirok etdilar. Uchrashuvni institut iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish bo'limi boshlig'i U.F. Payzullaeva olib bordi.

Iqtidorli talabalar bilan uchrashuvda ilmiy-tadqiqot faoliyat olib borish masalalari, jumladan iqtibosli ilmiy jurnallarda maqolalarni yozish va chop qilish, ilm to'garaklar faoliyati, yo'nalishlar bo'yicha mas'ullar va fakultetlar talabalar ilmiy jamiyati Kengashlarining istiqbolli rejalari muhokama etildi. Yuqori ilmiy e'tirof va natijalar faqat mashaqqatli mehnat orqali erishish mumkinligi va ilmiy-tadqiqot faoliyatda doim faol bo'lish lozimligi barcha uchrashuv ishtirokchiga tushuntirildi.



IJEVSK DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (RF) FIZIKLARI BILAN ONLAYN UCHRASHUV O'TKAZILDI



12 mart kuni institut "Tibbiy va biologik fizika" kafedrasida ijevsk davlat texnika universiteti (Rossiya) "Fizika va optotexnika" kafedrasida bilan akademik mobillik doirasida davra suhbatini o'tkazdilar.

Onlayn uchrashuvda barcha sohalar, shu jumladan tibbiyot sohasini rivojida fizika fani fundamental asos bo'lganini ta'kidlandi. Davra suhbatidagi asosiy masala - fundamental tibbiyot va amaliy sog'liqni saqlashda eng zamonaviy uslublar va tibbiy texnikani qo'llash bo'yicha munozaralar olib borildi.

Onlayn uchrashuv yakunida tibbiyot soxasidagi dolzarb mummolarini yechimini topishda tibbiyot texnikasini dolzarb masalalari bo'yicha hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish haqida kelishib olindi.

SamDTI matbuot xizmati



СРЕДИ СТУДЕНТОВ ПРОВЕДЁН КОНКУРС ПО НАПРАВЛЕНИЮ "АКУШЕРСТВО И ГИНЕКОЛОГИЯ"

18 марта в Самаркандском Государственном медицинском институте состоялся очередной конкурс среди одарённых студентов института по направлению "Акушерство и гинекология". В конкурсе приняли участие активисты Студенческого научного общества, профессорско-преподавательский состав кафедр акушерства и гинекологии, отдела подготовки научно-педагогических кафедр института.

С приветственным словом выступили председатель научного совета молодых учёных Н.Н.Шавази, профессора Н.И. Закирова, Д.Р. Худоярова, поблагодарившие и пожелавшие успехов всем участникам конкурса.

В ходе творческого конкурса было заслушано более 13 докладов, и членами конкурсного жюри оценивались доскональность, степень разработки темы выступления, мастерство презентации и регламент. По

завершению конкурса выбранные победители были награждены почётными дипломами первой, второй и третьей степени, а также в номинациях - самая лучшая научная работа, "Самый лучший доклад", "Риторика".

Между участниками была достигнута договорённость о проведении подобных будут продолжаться по различным направлениям и специальности.



Пресс служба СамМИ



SAMDTIDA UMUMXALQ XAYRIYA HASHARI O'TKAZILDI

Xalqimiz ma'naviyatini milliy qadriyatlarini orasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari ko'pchilikni birdamlikka, ahillikka va mehr-oqibatga undashi bilan ajralib turadi.

Respublikamizda joriy yilning 13 mart kuni bahor yangilanishi bo'lgan "Navro'z" bayrami arafasida e'lon qilingan umumxalq xayriya hashari Samarqand davlat tibbiyot institutida ham o'tkazildi.

Institutdagi hashar davomida barcha kafedra va kurslar, ma'muriy binolar, klinikalar hududlarida obodonlashtirish, chiqindilardan tozalash, yerlarni yumshatish, ko'chatlar ekish, daraxtlar va yo'laklarni oqlash kabi ishlar amalga oshirildi. O'tkazilgan xayriya hasharida institut ma'muriyati va professor-o'qituvchilar faol ishtirok etdilar.



SamDTI matbuot xizmati

Navro'z!

*Bolalar varragi xayolni olgan.
Bodom gullaridan, quvonadi ko'z.
Dillardan mutlaqo g'ubor yo'qolgan.
Xush kelding bahor, xush ko'rdik navro'z!*

*Anhorlar oqmoqda suvlarga to'lib.
Shukronalik aytdim tinchlikni ko'rib.
Mustaqil diyorga, bezaklar bo'lib.
Xush kelding bahor, xush ko'rdik navroz!*

*Navro'zda ulashing ezgu tilaklar.
Axir tilak bilan, kamaymaydi so'z.
Bahor gullaridek yashnab yuraklar.
Xush kelding bahor, xush ko'rdik navro'z!*

Bahor keldi!

*Yam-yashil gilamin to'shabdi qirlar
Qushlarning tilida qandaydir sirlar
Xazinasin ochmoq bo'ladi yerlar
Bahor kelibdi-da, kelibdi bahor.*

*Qizlarning qoshiga o'sma yarashgan,
Sabolar majmuntol sochin tarashgan,
Kamalak husniga gullar qarashgan,
Bahor kelibdi-da, kelibdi bahor.*

*Soylarning suvlari hayqirab oqar,
Bulbullar xonishi dilimga yoqar
Darakchi boychechak iymajib boqar
Bahor kelibdi-da, kelibdi bahor.*

Tibbiy pedagogika fakulteti
Muhayyo Musurmanova

OCHIQ MA'RUZA E'LONI

SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida **2021-yil 5-aprel** kuni fakultet pediatriya fanidan soat **11:40** da Pediatriya fakulteti 418-422 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: Gen kasalliklari.

Ma'ruzachi: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasining katta o'qituvchisi, **t.f.n. Meliyeva G.A.**

Manzil: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida ma'ruza zali
Taklif qilinganlar: Pediatriya fakulteti 418-422 guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrilar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

SAMARQAND - 2021

OCHIQ MA'RUZA E'LONI

SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida **2021-yil 7-aprel** kuni fakultet pediatriya fanidan soat **11:40** da Pediatriya fakulteti **311-315 guruh** talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: Sepsis. Etiopatogenezi, tasnifi, kasallikni shakli, og'irligi va kechivuga bog'liq holdagi klinikasi.

Ma'ruzachi: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasining dotsenti, **t.f.d. Muxammadiyeva L.A.**

Manzil: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida ma'ruza zali
Taklif qilinganlar: Pediatriya fakulteti 311-315 guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrilar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

SAMARQAND - 2021

Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti Davolash ishi fakulteti OCHIQ MA'RUZA

Samarqand davlat tibbiyot instituti Davolash ishi fakulteti 4-ichki kasalliklar kafedrasida majlislar zalida **2021 yil 1 aprel soat 11:40** da **dotsenti A.D. Dusanovning "Nospesifik yarali kolit. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi laborator-instrumental diagnostikasi, davolash"** mavzusida ochiq ma'ruzasi bo'lib o'tadi.

Taklif qilinganlar: Tibbiy pedagogika fakulteti V-kurs 505-508 guruh talabalari, klinik ordinatorlar, bo'lim terapevtlari, poliklimka vrachlari, dekanat ma'sul xodimlari, institutning terapevtik kafedralari xodimlari va xohlovchilar.

SAMARQAND - 2021

SamDTI quyidagi lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

DAVOLASH ISHI FAKULTETI

Anesteziologiya va reanimatsiya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

1-son ichki kasalliklar kafedrasida, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Sud tibbiyoti kafedrasida, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

Pediatriya kafedrasida, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

2-son otorinolaringologiya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

PEDIATRIYA FAKULTETI

Travmatologiya va ortopediya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

Ichki kasalliklar kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

1-son bolalar xirurgiyasi kafedrasida, professor lavozimiga - 1 o'rin;

Bolalar kasalliklari propedeutikasi kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Yuqumli kasalliklar kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 3 o'rin;

3-pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETI

Tibbiy va biologik fizika kafedrasida, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

1-son otorinolaringologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI

Umumiy amaliyot oilaviy meditsina kafedrasida, katta o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

dotsent lavozimiga - 1 o'rin.

Pediatriya va umumiy amaliyot kafedrasida, dotsent lavozimiga - 1 o'rin.

OLYI HAMSHIRALIK ISHI FAKULTETI

Teri-tanosil kasalliklar kafedrasida, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Patologik fiziologiya kafedrasida, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Fiziologiya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Epidemiologiya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Tibbiy biologiya va genetika kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Gistologiya, sitologiya, embriologiya kafedrasida, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Assistent o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 uy.

6-aprel 2021-yil 2-ichki kasalliklar kafedrasida mudiri **E.N. Tashkenbaeva** tomonidan

"Дифференциальная диагностика шумов сердца (недостаточность митрального клапана, стеноз митрального отверстия, пролапс митрального клапана)" mavzusida

OCHIQ MA'RUZA o'tkaziladi.

Barcha profesor - o'qituvchilar, magistr, klinik ordinatorlar va talabalar taklif etiladi.

Manzil: RSHTTYOIM Samarqand filiali shoshilinch terapiya bo'limi 2-ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali (7-qavat).

7-aprel 2021-yil 3-ichki kasalliklar kafedrasida assistenti **F.T. Yusupov** tomonidan "Revmatoid artrit: etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tadqiqot usullari, davolash tamoyillari, oldini olish" mavzusida **OCHIQ MA'RUZA** o'tkaziladi.

Barcha profesor-o'qituvchilar, magistr, klinik ordinatorlar va talabalar taklif etiladi.

Manzil: Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi

3-terapiya bo'limi ma'ruzalar zali (2-qavat).

26 - aprel 2021 yil - Samarqand ko'p tarmoqli tibbiyot markazi **ma'ruza zalida:** Pediatriya fakulteti **407-412-guruxlari uchun:** "Anemiyalar, etiopatogenezi, klinikasi, tashxisi, davolash tamoyillari" mavzusida **OCHIQ MA'RUZA** o'tkaziladi.

Ma'ruzachi: Dotsent, t.f.n. **K.M. Abdiev**

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

**G'U. LUTFULLAEV,
S.A. KARABAEV,
S.E. MAMARADJABOV,
A.A. AXMEDOV,
J.F. KADIROV.**

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:
N. MUSURMANOV

Operator va sahifalovchi:

A. KELDIYAROV
Fotomuxbir:
O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.
INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2021 yil, 25 mart. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 139